

Sukutdagi hukm

Sud zaliga kirganimda deraza ortidagi osmon bulut edi. Fevralning oxiri. Samarqand shahri markazidagi Fuqarolik ishlari bo'yicha sud binosi oldida odamlar odatdagidan ko'proq edi. Havo sovuq, odamlarning yuzida esa odatdagi shoshilish emas, nimadir kutayotgan odamning bezovtaligi bor edi. Men jurnalistika fakultetining ikkinchi bosqich talabasi sifatida sud jarayonlarini kuzatish uchun bir necha haftadan beri qatnayotgan bo'lsam-da, bu safargi ish boshqacha tuyuldi. Chunki bu yerda faqat qonun emas, odamlarning umriga ta'sir qiladigan qaror o'qilishi kerak edi. Sud binosining uzun yo'lagida odamlar past ovozda gaplashardi. Kimdir advokatini kutmoqda, kimdir qarindoshining ishi qanday tugashini o'ylab telefoniga termulib o'tirardi. Sud kotibi eshik oldidan chiqib, navbatdagi ishni e'lon qilgach, bir necha odam birdaniga o'rnidan turdi.

— Fuqarolik ishlari bo'yicha tumanlararo sudining ochiq sud majlisi boshlanadi. Men ham daftaramni qo'limga olib zalga kirdim. Ish oddiy ko'rinardi: aliment undirish va voyaga yetmagan bolaning ta'minoti bilan bog'liq da'vo. Lekin sud zaliga kirgan ayolning yuziga qaraganimda, bu qog'ozdagi oddiy ish emasligini tushundim. U taxminan o'ttiz yoshlar atrofida edi. Keyinroq hujjatlardan uning ismi Dilnoza Ergasheva ekanini bildim. Qo'lida eski qora sumka, yonida esa yetti-sakkiz yashar bola. Bola onasining yengidan ushlab olgan, indamay turardi. Qarshi tomonda esa bolaning otasi — qora kurtkali, soqoli o'sib ketgan, ko'zlarini yerga tikib o'tirgan erkak o'tirardi. Uning ismi Sherzod Nematov edi. Sudya ishni boshladi.

— Da'vogar o'z talabini bayon qilsin. Ayol avvaliga sekin gapirdi. Keyin ovozi titray boshladi.

— Uch yildan beri bolamni o'zim katta qilyapman. Otasi bir necha oy pul yuboradi, keyin yana yo'qolib qoladi. Maktab xarajati bor, dori-darmoni bor. Men ham ishlayman, lekin hammasiga yetmayapti. Sud zalida sukunat paydo bo'ldi. Men daftarga gaplarni yozib borarkanman, bir payt ayolning “bola oldida otasini yomonlashni istamayman” degan gapi e'tiborimni tortdi. Sudlarda ko'p odam bir-birini ayblaydi, ovozini ko'taradi, o'tgan hayotini titib tashlaydi. Lekin bu ayolning gapida g'azabdan ko'ra charchoq ko'proq sezilardi. Sudya javobgardan aliment nega vaqtida to'lanmaganini so'radi. Erkak uzoq jim qoldi.

— Moskva tomonlarda ishlagandim. Keyin ish bo'lmay qoldi. Qarzga kirib ketdim. Bu gap sud zallarida eng ko'p eshitaladigan bahonalardan biri bo'lishi mumkin. Lekin uning ovozida bahonadan ko'ra uyat aralash og'irlik bor edi. Sud davomida bolaning tug'ilganlik haqidagi guvohnomasi, oldingi ijro hujjatlari va qarzdorlik hisob-kitoblari o'qib eshittirildi. O'zbekiston Respublikasi Oila kodeksining 96-

moddasiga ko‘ra, ota-ona voyaga yetmagan bolalarini boqishi shartligi yana bir bor eslatildi. Sudya alimentni to‘lash ota-onaning ixtiyoriy yordami emas, qonuniy majburiyati ekanini ta’kidladi. Shu payt bola birdan otasiga qarab qo‘ydi. Men bu nigohni uzoq unutilmadim. U yerda nafrat yo‘q edi. Faqat bir savol bor edi: “Nega?” Sud majlisi davom etar ekan, advokat aliment qarzdorligi bo‘yicha hisob-kitoblarni o‘qib berdi. Bir necha million so‘m yig‘ilib qolgan. Dilnoza shu vaqt davomida Samarqanddagi kichik tikuv sexida ishlaganini, ba‘zan qo‘shimcha buyurtma olib turlari uxlamaganini aytdi. Sudlarda ko‘p hollarda moddalar, dalillar va protsessual tartiblar haqida gapiramiz. Lekin ba‘zan bitta bolaning jim o‘tirishi yuzta qonun moddasidan ham kuchliroq ta’sir qiladi. Men ilk marta sud jurnalistikasiga qiziqqanimda, sud deganda katta jinoyatlar, shov-shuvli ishlar haqida o‘ylardim. Lekin vaqt o‘tib tushundimki, jamiyatdagi eng og‘ir fojealar ba‘zan eng sokin sud zallarida ko‘riladi. Sudya qarorni o‘qish uchun maslahatxonaga chiqdi. Zalda hech kim gapirmadi. Ayol bolaning boshini silab qo‘ydi. Erkak esa deraza tomonga qarab qotib qolgandi. Men esa daftarimni yopib, odamlarning yuziga qaradim. Sud zali menga birdan juda tor tuyuldi. Oradan o‘n besh daqiqa o‘tib sudya qaytdi. Qarorga ko‘ra, javobgardan aliment qarzdorligi undirildi va keyingi to‘lovlarni o‘z vaqtida amalga oshirish majburiyati yuklatildi. Shuningdek, qaror ijro hujjati sifatida Majburiy ijro byurosiga yuborilishi aytili. Sudya qarorni o‘qib bo‘lgach, hamma sekin o‘rnidan turdi. Men esa bir narsani o‘ylab qoldim. Sud hech qachon buzilgan oilani qayta tiklab bera olmaydi. Hech bir hukm bolaning yo‘qotilgan bolaligini ortga qaytarmaydi. Qonun adolatni ta’minlashga harakat qiladi, lekin ayrim yo‘qotishlarning o‘lchovi bo‘lmaydi. Sud binosidan chiqqanimda havo yanada sovib ketgan edi. Odamlar har tomonga tarqaldi. Dilnoza esa o‘g‘li Muhammadaliyning qo‘lidan ushlab Registon tomondagi avtobus bekati tomon yurib ketdi. Men ularning ortidan qarab qoldim. Shu payt sud jurnalistikasi haqida o‘qigan bir gap esimga tushdi: “Sud jarayoni — faqat qonunlar to‘qnashuvi emas, inson taqdirleri kesishadigan joy.” O‘sha kuni men sud ocherki yozish faqat voqeani bayon qilish emasligini tushundim. Sud ocherki — odamlarning og‘rig‘ini ortiqcha dramatzatsiyasiz, lekin rost holicha ko‘rsatish ekan. Chunki ayrim hukmlar sud zalida o‘qiladi. Eng og‘ir hukmlar esa odamning ichida qoladi.

Azizbek Choriyev